



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### PSIXOTROP DORI VOSITALARINING YOSHLAR ORASIDA SALBIY

#### TA`SIRI

Xodjiyeva Nafisa Olimovna,

Mamarajabova Dilfuza Ergashevna,

Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Farmakologiya va asoslari fani o‘qtuvchilari:

Saparova Nilufar Mirkomilovna,

Farmatsiftik kimyo fani o‘qtuvchisi:

Doniyorova Kamola Baxtiyor qizi.

Farmatsiya bo‘limi

#### Anatatsiya:

Ushbu maqolada psixotrop dori vositalarining yoshlari orasida avj olganligi va nojuya ta`siri haqida malumotlar keltirilgan bo`lib, salbiy tasiri va oqibatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** psixotrop dori vositalari, zaharlanish, o'z joniga qasd qilish, o'z joniga qasd qilishning zaharlanish ko'rinishi, detoksikatsiya, gastroenterosorbsiya, antidotlar, ichak lavaji, jadallahsgan diurez, plazmafarez, gemosorbsiya, ximiogemoterapiya, fiziogemoterapiya.

### ADVERSE EFFECTS OF PSYCHOTROPIC DRUGS AMONG YOUNG PEOPLE

#### Abstract:

This article provides information on the prevalence and side effects of psychotropic drugs among young people, as well as information on negative effects and consequences.

**Key words:** psychotropic drugs, poisoning, suicide, toxic suicide, detoxification, gastroenterosorption, antidotes, intestinal lavage, forced diuresis, plasmapheresis, hemosorption, chemotherapy, physiogemotherapy.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

OAV orqali psixotrop moddalar savdosi bilan noqonuniy shug‘ullanayotgan kimsalar haqida tez-tez eshitamiz. Bu moddalar shifokor tavsiyasisiz iste’mol qilinsa, inson hayotiga jiddiy zarar etkazishiga qaramay, uni yashirin yo‘l bilan olib kirishga urinishlar hamon davom etayotgani juda achinarli holdir.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bunday razillik respublikamizning Toshkent shahri hamda Farg‘ona viloyatlarida ko‘p uchramoqda. Dorilar orasida “Regapen” va “Semlopin” deb nomlangan turi bor. Ular iste’mol qilgan kishini narkologik kasalliklarga yo‘liqishiga sabab bo‘ladi. Eng yomoni, bu dorilalarni yosh bolalarga aldab sotib, ularni giyohvandlik ko‘chasiga kirishlariga harakat qilinayapti.

Kuni kecha “O‘zbekiston-24” telekanalida berilgan ko‘rsatuvda ham Toshkent shahrining Chilonzor va Uchtepa tumanlaridagi dorixonalarda mazkur turdagи dorilar noqonuniy tarzda sotilayotganligi haqida aytib o‘tildi va bu borada yanada sergak bo‘lishimiz lozimligiga amin bo‘ldik.

Psixotrop moddalar, neyro leptik moddalar, neyroleptiklar — kishining psixik faoliyatiga ta’sir etadigan dorilar guruhi; ular es-hushni buzmay, alaxlash, gallyutsinatsiya va psixozga xos boshqa belgilarni yo‘qotadi. Nerv kasalliklari va psixik kasalliklarni davolashda qo‘llanadi. Ta’sir etishiga ko‘ra neyroleptiklar (aminazin), anksiolitiklar (seduksen va boshqalar), psixostimulyatorlar (fenamin va boshqalar), antidepressantlar (amitriptilin) va hokazolarga bo‘linadi.[1]

Psixotrop dori vositalari orasida “Trimadol”, “Lirika” deb ataladiganlari ko‘p tarqalmoqda. Vaholanki, bu dorilar, dastlab, davolash uchun xizmat qilgan. Yoshlar ularni bosh og‘rig‘ini qoldirishda va kayfiyatni ko‘tarishda foydalanishgan. Bu kabi dori vositalarida giyohvand moddalaridagi kabi o‘ziga o‘rgatib qo‘yishdek xususiyat bor. Va bu insonni o‘ziga tobe qilib qo‘yadi. Tabiiyki, bu giyohvandlikning yangicha ko‘rinishini paydo qiladi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, aslida psixotrop dorilar shifokor tavsiyasiga ko‘ra, nevrologiya, tutqanoq, onkologiya, kuchli og‘riqqa qarshi va oftalmologlar tomonidan ko‘z kasalliklarini aniqlashda ishlataladi. Ushbu dorilar tarkibida narkotik moddalar mavjud. Ular mamlakatimiz qonunchiligiga ko‘ra, rasman narkotiklar ro‘yxatiga kiritilgan. Mazkur dorilarni jarrohlik operatsiyalarida og‘riqsizlantirish maqsadida me’yor bilan qo‘llash mumkin. Ammo uzoq muddat qo‘llanilsa yoki notibbiy maqsadda foydalanilsa, o‘ziga nisbatan ruhiy va jismoniy tobelikni yuzaga keltiradi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Odamning oliv faoliyatiga tanlab ta'sir etib, ruhiy-emotsional holatlar, kayfiyat va boshqalami o'zgartiradigan preparatlami o'z ichiga oladi. Ular ta'sirining xili, mexanizmi, ishlatilishi va boshqa ko'rsatkichlari jihatidan har xiI farmakologik guruhga mansub bo'lib, turli kimyoviy sinflarga kiradi. Hozirgi vaqtida tibbiyotda ishlatiladigan psixotrop vositalaming soni 100 dan oshadi. Oxirgi paytda ruhiy va nevrotik kasalliklar ko'payib qolgani uchun psixotrop preparatlar ham ancha keng miqyosda ishlatilmoqda.[3]

Odamning ruhiy faoliyati ikki jarayon: tuyg'u-hissiyot va fikrlashdan iborat. Tuyg'u hissiyot, asosan, MNTning po'stloq ostidagi limbik tizim - orqa gipotalamus va talamus faoliyati, yuqori darajalii nozik, nalls, axloqqa oid tuyg'u-hissiyotlar miya po'stlog'ining faoliyati, fikrlash, asosan miya po'stlog'i, gipotalamus hamda gippokamp faoliyati bilan bog'liq. Miya po'stlog'ining faolligiga asosan retikular fonnatsiya ta'sir qiladi.

Ichki va tashqi muhitda bo'layotgan hodisalarni to'g'ri talqin qila bilish va ularga baho berib. tegishlicha munosabatda bo'lish qobiliyatiga bog'likdir. Odamning yurish-turishi, o'zgalar bilan munosabati, jamiyatda tutgan o'rni. ish faoliyati va boshqalarning ruhiy holatiga ko'p tomondan bog'liq bo'ladi. Bu holatning har xiI sabablarga ko'ra buzilishi ruhiy kasallikka olib kelishi mumkin. Psixoz holati. shizofreniya. savdoysi bo'lib qolish hollari alohida ahamiyatga ega. Bunday xastaliklarning kelib chiqishida irsiy omil. yoshlikdagi tarbiya. ijtimoiy omillar va atrofdagi nobop muhitning ta'siri katta. Psixoz holati oliv nerf faoliyatining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. bunda bemorning yurish-turishi. Bo'layotgan hodisalarga munosabati tamomila boshqacha bo'lib, ko'pincha qo'zg'alish va gallutsinatsiyalar kuzatiladi.[2]

Shizofreniya surunkali kechadigan og'ir kasallik bo'lib. vaqt-i-vaqt bilan xuruj qilib turishi va xurujlari turlicha namoyon bo'lishi bilan ta'ritlanadi. Masalan. uning maniakal. paranoid. depressiv shakllari bor. Kasallik xuruj qilib qolgan mahalda psixomotor qo'zg'alish holati vujudga keladi.

Ruhiy salomatlik holatini boshqarish uchun odatda yoshlarga buyuriladigan psixotrop dorilar so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan. Antidepressantlar, antipsikotiklar va stimulyatorlarni o'z ichiga olgan ushbu dorilar depressiya, va stress kabi kasalliklarni davolashda samarali bo'lishi mumkin. Biroq, ular yosh shaxslarning farovonligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarga ham ega.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Pediatriya jurnalida chop etilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Qo'shma Shtatlardagi bolalar va o'smirlar o'rtasida psixotrop dorilarni qo'llash 2015 va 2020 yillar oralig'ida deyarli ikki baravar ko'paygan. Retseptlar tobora ortib borishi ushbu dorilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan xavflar haqida xavotir uyg'otadi, ayniqsa yoshlar orasida ham keng rivojlanmqda.

Yoshlar orasida psixotrop dorilarning keng tarqalganligi salbiy ta'siridan yoshlar orasida vazn ortishi, sedasyon, jinsiy disfunktsiya, o'z joniga qasd alomatlarini uchratishimiz mumkin. Og'irlilikning ortishi ko'plab psixotrop dorilarning keng tarqalgan yon ta'siri bo'lib, semirish va boshqa sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin. Sedatsiya va uyquchanlik yoshlarning diqqatini jamlashi va kundalik faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin, jinsiy disfunktsiya esa ularning hayot sifati va munosabatlariga ta'sir qilishi mumkin. Ba'zi hollarda psixotrop dorilar, ayniqsa, kayfiyati buzilgan odamlarda o'z joniga qasd qilish fikrlari va xatti-harakatlari xavfini oshirishi mumkin.

Tibbiyot xodimlari uchun psixotrop dorilar buyurilgan yoshlarni diqqat bilan kuzatib borish, ularni va ularning oila a'zolarini ushbu dorilarning mumkin bo'lgan xavflari va foydalari haqida o'rgatish juda muhimdir. Muntazam kuzatuv olib borish va do'stona muloqot har qanday nojo'ya ta'sirlarni erta aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi. Bundan tashqari, terapiya, turmush tarzini o'zgartirish va muqobil terapiya kabinofarmakologik muolajalar ruhiy salomatlik holati bo'lgan yoshlarni kompleks davolash rejasining bir qismi sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, psixotrop dorilar yoshlarda ruhiy salomatlik belgilarini boshqarishda foydali bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ushbu dorilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlardan xabardor bo'lish juda muhimdir. Tibbiyot xodimlari, ota-onalar va yoshlarning o'zлari psixotrop dorilarning xavf-xatarlari va foydalarini ko'rib chiqish va kerak bo'lganda muqobil davolash usullarini o'rganish uchun birgalikda ishlashlari kerak. Yoshlarning farovonligi va xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yish orqali biz ularning ruhiy salomatligiga bo'lgan ehtiyojlari uchun eng yaxshi yordamni olishlarini ta'minlashimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Акалаев Р.Н., Лодягин А.Н., Шарипова В.Х., Ризаев К.С., Матлубов М.М., Стопницкий А.А., Хожиев Х.И., Акалаева А.А. Хонбабаева Р.Х. Психотроп



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

дори воситаларидан ўткир заҳарланишларни даволаш (адабиётлар шархи). //

Вестник экстренной медицины, том 14, № 1, - Ташкент, 2021. - С. 84-93

3. Громов М.И., Шилов В.В., Михальчук М.А., Федоров А.В. Тактика экстракорпорального очищения крови в токсикогенной стадии острых отравлений: Пособие для врачей / ГУ СПб НИИ скорой помощи им. И.И. Джанелидзе, СПб. 2011; 17.

4. Ливанов Г.А., Васильев С.А., Батоцыренов Б.В., Александров М.В., Лодягин А.Н. [и др.] Отравление психотропными средствами, не классифицированными в других рубриках. Федеральные клинические рекомендации. 2011:38.